



PEDAGOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY TAYYORGARLIK DARAJASINI BELGILOVCHI XUSUSIYATLAR

Yuldasheva Saodat Mamasakhatovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Psixologiya” kafedrası katta o'qituvchisi

e-mail: syuldasheva996@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14870151>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04- Fevral 2025 yil

Ma'qullandi: 08- Fevral 2025 yil

Nashr qilindi: 14-Fevral 2025 yil

KEY WORDS

*pedagogik ta'lim yo'nalishi, talaba,
kasbiy tayyorgarlik,
muloqotmandlik, tashkilotchilik,
predmetlarga yo'nalganlik,
intelligentlik, qo'llab-quvvatlash,
ustanovka, prediktorlar,
prognozlash*

ABSTRACT

Mazkur maqola mazmuni pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlovchi prediktorlarni prognozlashga qaratilgan. Bunda bir necha oliy ta'lim tashkilotlari talabalarini pedagogik kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagog-murabbiyda shakllanishi lozim bo'lgan prediktorlarni qay darajada o'zida kamol toptirishga erishayotganligini prognozlashda muloqotmandlik, tashkilotchilik, predmetlarga yo'nalganlik, intelligentlik, qo'llab-quvvatlash kabi prediktorlar ustvor ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari psixologik tahlil qilingan.

Ma'lumki, har bir shaxs farovonlikda va yaxshi ta'minlangan sharoitda yashashni istaydi. Shu sababli ham insonlar farovon turmushni ta'minlashga xizmat qiluvchi mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga intiladilar va moddiy boyliklarni o'zlashtirishga imkon yaratuvchi kasb-hunar sohalari va mutaxassisliklarni egallashga harakat qiladilar. Ba'zi holatlarda ma'lum bir kasbni tanlash va uni egallashda shaxsning imkoniyati yetarli bo'lmaydi. Insonning qiziqishlariga va psixologik imkoniyatlariga to'g'ri kelmaydigan kasbning tanlanishi, tabiiyki, uning shaxs sifatida kamol topishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan shaxsning ichki intilish va imkoniyatlariga u tanlagan kasbi bilan shaxsi orasidagi munosabati o'ta dolzarb masala hisoblanadi. Biz quyida shu masala bo'yicha psixolog olimlarning qarashlarini, o'tkazgan tadqiqotlarini tahlil qilamiz.

Ma'lumki, shaxsning kasbiy shakllanishi to'rt asosiy bosqichdan iborat bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin: a) kasbiy intilishlarning shakllanishi; b) kasbiy ta'lim; v) kasbiy moslashish; g) shaxsning kasbiy faoliyatda qisman va to'liq o'zini-o'zi bag'ishlashi. Mazkur bosqichlarga mos holda kasbiy o'zini o'zi aniqlash jarayoni ham sodir bo'ladi. Kasbiy o'zini o'zi aniqlash jarayoni psixologik adabiyotlarda yetarli darajada chuqur yoritilgan bo'lib, ayniqsa, psixologlar kasbiy intilishning shakllanishi va kasb tanlash bosqichlariga alohida e'tibor qaratganlar.

Kasbiy faoliyatni psixologik - pedagogik tadqiqot predmeti sifatida tadqiq etishda turli xil yondashuvlar, ilmiy xulosalar va maxsus metodologiya mavjud bo'lib, ular kasb tanlash, kasbiy ta'lim, kasbiy ma'rifat, kasbiy maslahat, kasbga yo'naltirish, kasbiy rivojlanish haqida qarashlarni o'zida mujassamlashtirgan olimlarimiz E.F.3eer, Ye.A.Klimov, I.M.Kondakov,

V.V.Suvorova, T.V.Kudryavsev, A.K.Markovalardir[2,3]. Bu doiradagi ilmiy tadqiqotlarning ko'pchiligida kasbiy rivojlanish uzoq muddatli va bir necha bosqichli jarayon ekanligi qayd qilinadi. Shuningdek, bu tadqiqotlarda har bir bosqich mehnat faoliyatini samarali boshqarishga xizmat qiluvchi psixik yangilanishga ega, degan mulohaza mujassamlashgan.

Shaxs sifatlarining ijobiy o'zaro aloqalari munosabatlari sifatida kasbiy faoliyat uchun zarur malakalarning muvaffaqiyatli rivojlanishi, kasbiy kamolot qobiliyatlarning natijasi sifatida idrok qilinadi. Kasbiy kamolot jarayonida kasbiy qobiliyatlarning shakllanishini shaxsning individual xususiyatlari kompleksi ta'minlaydi. Kasbiy faoliyatga o'tish bir qator bosqichli jarayon bo'lib, ta'limdan mustaqil kasbiy faoliyatga o'tish har bir insonning e'tiborga molik jihati hisoblanadi.

O'qituvchi shaxsining kasbiy yo'nalganligi, ko'pincha uning shaxsiy kamoloti bilan ancha mustahkam bog'langan, uyg'un holatda namoyon bo'ladi. Uning kasbiy kamolotini baholash uchun esa, albatta, faoliyatning bir qator jabhalarini ajratib ko'rsatish lozim[1]

Ijtimoiy talablarning o'sishi kasbning va mutaxassislarining jamiyat hayotidagi o'rnini belgilaydi. Shu sababli ham bugungi kunda "ahamiyatga ega" va "o'z ahamiyatini yo'qotgan kasb" atamasini ishlatishga to'g'ri kelmoqda. Yoshlarning kasb tanlashida ham xuddi shu tarzda nuqtai nazar va dunyoqarash yetakchilik qilib qolmoqda. Bizning tadqiqotimiz uchun ham ushbu talablarni inobatga olgan holda kasb tanlashdagi nomutanosibliklarning sabablarini aniqlash va uning oldini olish uchun tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

F.S. Ismagilova mutaxassis sifatida shakllanishda kasbiy tajribaning ahamiyatini e'tirof etgan holda, bir qator ijobiy mulohazalarni ilgari suradi. Uning fikricha, "mutaxassisning kasbiy tajribasi hozirgi kundagi yangi texnologik o'zgarishlarga xohish sezib, eskilari bilan o'rnini almashtirishi bilan xarakterlanadi. Bu muttasil yuz beradigan va amaliyotni taqozo etuvchi muammo hisoblanadi. Kasbiy tajriba mutaxassisni ma'lum bir kasb uchun saralashda foydalaniladigan mezon hisoblanadi. Biroq muhimi shaxsning o'zi. Chunki o'z ish o'rnini yo'qotishi yoki uning kafolatlovchisi ham shaxsning o'zi hisoblanadi".

Bugungi kun texnologiyasidagi jadal o'zgarishlar kasbiy mehnat mazmunini tubdan o'zgartirib yuboradi va kasbiy ongining o'tmishi, buguni va kelajagi o'rtasidagi munosabatlar ildiziga yangicha nazar solishga da'vat etadi.

Rossiya psixologiyasi birinchilardan bo'lib mehnat faoliyatini o'rganishga kirishdi. L.S. Vygotskiy, S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontev, B.M. Teplov, B.G. Anan'ev, A.V. Zaporozh'ev, B.F. Lomov va boshqalarning faoliyatning umumpsixologik muammolarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan asarlari faoliyatning psixologik tuzilishi, uning morfologiyasi, strukturasi, boshqarish mexanizmlari va o'rganish tamoyillari haqidagi tasavvurlarga asos soldi va rivojlantirdi. Keyinchalik esa mehnat faoliyatining amaliy jihatlari, aynan proforientatsiya, kasbiy tanlash, kasbiy tayyorgarlik, faoliyatni loyihalashtirish va boshqa shu kabi masalalar ham intensiv ravishda ishlab chiqila boshlandi (V.D. Shadrinov, D.A. Oshanin, A.A. Kravtsov, S.A. Konopkin, V.P. Zinchenko, N.D. Zavalova, Ye.A. Klimov, G.M. Zarakovskiy, G.S. Suxodolskiy va boshqalar.)[6,7].

Kasbiy faoliyatning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini o'rganishning o'zida faoliyat nazariyasining umumpsixologik masalalarini ham, shuningdek uning amaliy jihatlari ham birlashtiruvchi yo'nalishlaridan biri mehnat sub'ektining kasbiy yaroqliligini ishlab chiqish bo'ldi. Bu yo'nalish, birinchidan, hayot va kasb yo'llaridagi bosqichlarda shaxsning

xususiyatlari va sifatlarining rivojlanishida, kasbiy xususiyatlarining namoyon bo'lish xarakteri va darajasida, kasbiy motivatsiya strukturasi va dinamikasida aks etadigan individual –psixologik farqlarni ko'rib chiqadi. Aynan mana shu psixologik xususiyatlar va sifatning holati kasbiy tayyorgarlikning, faoliyatga moslashuvning, o'zini professional sifatida shakllantirish, namoyon qilish va konkret faoliyatga oid masalalarni hal qilish muvaffaqiyatlilikini belgilaydi. Bu oxir oqibatda sub'ektning faoliyat talablariga muvofiqligini (yaroqliligini) shartlaydi. Ikkinchidan, kasbiy yaroqlilik muammosining muhim jihati sub'ekt tegishli bo'lgan konkret bir faoliyatning mohiyati bo'lib, – uning sub'ektga qo'yiladigan talablar tizimida turadigan mazmuni, vositalari va sharoitlari, kasblarning rivojlanishi bilan mazkur faoliyat komponentlarining o'zgarish xarakteri, mehnat vazifalarining ob'ektiv va sub'ektiv ahamiyati darajasi va boshqalar hisoblanadi. Uchinchidan, kasbiy yaroqlilik tayyorgarlik va real faoliyatning oraliq yoki yakuniy natijalarida (muvaffaqiyatlilik, unumdorlik, ishonchlilik va boshqalar) namoyon bo'ladi va bu natijalar ularning etalon, normativ ko'rsatkichlari bilan to'qnash kelganda sub'ekt uchun baholash ma'nosini kasb etadi. Ularning muhimligi, bir tomondan, teskari aloqa mexanizmini qo'shish asosida faoliyatni boshqarishdagi baholarning roli (ob'ektiv va sub'ekt) bilan, ikkinchi tomondan esa, - mana shu baholarning konkret sub'ektning turli xil ijtimoiy, iqtisodiy, kasbiy hamda hayoti va faoliyatiga oid boshqa masalalariga, uning tayyorgarligi, istiqbolliligi va professionalligi haqidagi mulohazalarga ko'rsatadigan ta'siri bilan belgilanadi.

B.F. Lomov psixologiyada faoliyatni o'rganish jarayonida uning predmeti, vositalari, sharoitlarini sub'ektning jarayonlari, holati va xususiyatlarini tushunish uchun qancha zarur bo'lsa, shuncha tadqiq qilish lozimligiga e'tibor qaratadi. Uning ta'kidlashicha, "ko'pincha individ tomonidan faoliyatning bajarilishi jarayonida yuzaga keladigan va rivojlanadigan psixik hodisalarga uning mahsuli sifatida qaraladi.

Har qanday faoliyatning, jumladan individual faoliyatning ham haqiqiy mahsuloti uni bajarish paytida o'zgartirilgan (garchi bilvosita bo'lsa-da – boshqa insonlarning faoliyati orqali) moddiy yoki ideal predmet hisoblanadi. [4, b. 203]. Ushbu predmetning bahosi (uning sifati, kattaligi va boshqalar), uning ijtimoiy va individual qiymati, foydaliligi, professionalashtirish uchun ahamiyati va boshqalar kasbiy yaroqliligi, sub'ekt professionalizmi darajasining mezoni bo'lib xizmat qiladi.

Psixologiya voqelikni individning (yoki insonlar guruhining) faoliyatida sub'ektiv aks etishi tizimining roli va joyini o'rganadi. «Bir tomondan, u faoliyatga sub'ektning psixik jarayonlari, holatlari va xususiyatlari tizimining determinantasi sifatida qaraydi. Boshqa tomondan esa, u bu tizimning faoliyatning samaradorligi va sifatiga ta'sirini o'rganadi, ya'ni psixik hodisalarni faoliyat omili sifatida ko'rib chiqadi» [4, b. 205].

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot davomida pedagogik yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorlash jarayonida yetakchi faoliyat yo'nalishlarining nimaga qaratilganligi va ularni talabalarining kurs bosqichlariga binoan o'zgarishlar o'ziga xosliklarini aniqlashga erishildi. Pedagogik yo'nalishi talabalarini kasbiy tayyorlash oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini qanday tashkil etilganligiga ham bog'liq degan, dastlabki pragnostik farazni isbotlashga harakat qilaylik. Aslida mutaxassislar tayyorlash jarayonining umumiy maqsadi Davlat ta'lim standartlarida belgilangan kasbiy qoidalar va bilimlarni o'zlashtirish uchun qo'yilgan talablarga bog'liq. Ammo, bu esa yo'naltiruvchi va aniq maqsadlarga, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonida belgilab

olinadigan kognitiv va affektiv (xulq-atvor) maqsadlarga asoslanadi. Mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik holatini psixologik tahlil qilishda ham ushbu jihatlar murakkablik tug'diradi. Biz tadqiqotda foydalangan metodikalar natijalarining tahliliga ko'ra, pedagogik yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorlashdagi mahalliy shart-sharoitlarning ta'siri ko'proq qaysi jihatlarini o'rganish zarurligini taqozo etadi? Shu bois, mazkur tadqiqot natijalariga murojaat etib ko'raylik (1-jadval).

1-jadval

Pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilovchi xususiyatlar

OTM	Ustanovkalar									
	Muloqot-mandlik		Tashkilotchilik		Predmetga yo'nalganlik		Intelligentlik		Qo'llab-quvvatlash motivi	
	x	δ	x	δ	x	δ	x	δ	x	δ
CHDPU	4,52	0,85	3,42	0,34	5,25	0,58	3,30	0,78	5,08	0,73
TerDU	5,27	0,86	5,06	0,53	6,28	0,43	3,60	0,62	5,08	0,61
GulDU	5,12	0,37	4,38	0,51	5,46	0,84	3,34	0,50	6,16	0,60

Tadqiqot natijalari bo'yicha shu narsani kuzatish mumkinki, talabalarini kasbiy tayyorlash jarayonida pedagogik faoliyatning yetakchi yo'nalishlarida oliy ta'limni tashkil etishning mahalliy holatlari o'rtasida nisbiy farqlar mavjud. Chunki, mutaxassislar tayyorlash jarayonida Davlat ta'lim standartlarida qo'yilgan talablarning, ta'lim jarayonini tashkil etishga va o'quv mezonlarining bir xilligi farqlar keskin tus olmaganligini ko'rsatsa-da, ammo bilimlarni o'zlashtirish, kasbiy tasavvurlar va mutaxassislikka xos o'quv-tarbiyaviy ko'nikmalarni shakllantirish ko'proq talabaning shaxsiy kamolotiga bog'liq ekanligini tasdiqlaydi. Deyarli tadqiqot natijalarida metodikaning asosiy baholash mezonlari, ya'ni "muloqotmandlik", "tashkilotchilik", "predmetga yo'nalganlik", "intelligentlik", "qo'llab-quvvatlash motivi" bo'yicha respublikamizdagi bir necha oliy ta'lim muassasalarida o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida umumiylik kuzatildi, deyishimiz mumkin, ya'ni natijalarning barchasi yuqori ham, quyi ham emas. Ularda o'rtachadan yuqoriroq qiymat ifodalaganligi bunga yorqin misoldir. Ammo ularning o'ziga xos tomonlari, ushbu faoliyat turlarining orasidagi farqlarda kuzatiladi.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalarining tasavvuricha, pedagog uchun yetakchi faoliyat yo'nalishi "predmetlarga yo'nalganlik" ($5,25 \pm 0,58$) va "qo'llab-quvvatlash motivi" ($5,08 \pm 0,73$) dir. Mazkur talabalarining tasavvuridagi mulohazalarga tayanadigan bo'lsak, pedagogik faoliyat, birinchi galda, pedagoglarga predmetlarni o'zlashtirish va ularni rag'batlantirib borishi borasida yetakchi ko'nikma va malakalarni egallash to'g'risida xulosa chiqarishga imkon bermoqda.

Termiz davlat universiteti talabalarining baholarida ham "predmetga yo'nalganlik" ($6,28 \pm 0,43$) yetakchi faoliyat yo'nalishi hisoblangan. Pedagogika yo'nalishi talabalarining navbatdagi ustanovkalar bo'yicha bergan baholaridagi farqlar ham o'ziga xos bo'lib,

pedagogika yo'nalishi talabalari uchun faoliyatning boshqa yo'nalishlarida differensiyalashuv emas, balki uyg'unlik bo'lishi ma'qul, degan tasavvurga ega ekan: "muloqotmandlik" ($5,27 \pm 0,86$), "tashkilotchilik" ($5,06 \pm 0,53$), "intelligentlik" ($5,60 \pm 0,62$), "qo'llab-quvvatlash motivi" ($5,08 \pm 0,61$). Bunday tasavvur ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarning kasbiy sifatlari bilan shaxs kamolotini uzviylikda rivojlantirish zarurligini anglatadi. Natijalardan ko'rinib turibdiki, mazkur oliy ta'lim muassasalarida pedagogik yo'nalishi mutaxassislarini kasbiy tayyorlash jarayoni to'g'ri yo'lga qo'yilgan, degan xulosani beradi.

Yuqoridagi ikkita oliy ta'lim muassasalaridan farqli ravishda Guliston davlat universiteti pedagogika yo'nalishi talabalarida "qo'llab-quvvatlash motivi" yetakchiligi (6,16 ball) ajralib qolmoqda. Bundan ko'rinadiki, pedagogik faoliyatni yaxshi yo'lga qo'yishda "qo'llab-quvvatlash motivi" belgilovchi rol o'ynashi o'qituvchi uchun zarur ahamiyatga ega, chunki mazkur faoliyatda muallimning o'quvchilari bilan hamkorlikda ishlashi, ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etishi, shaxslararo munosabat, empatiya, kongruentlik muhim sanaladi.

Shunday qilib, kasbiy yaroqlilikga ham faoliyatning individdan talab qilinadigan va u tomonidan amalga oshiriladigan mahsuldorligi, muvaffaqiyatliligi darajasini xarakterlovchi tizimli sifati deb, ham uning sub'ektining faoliyatning berilgan normativlariga erishish va ularni amalga oshirishning tizimli sifati deb qarash mumkin. Bundan kelib chiqadiki, kasbiy yaroqlilikning shakllanishi va namoyon bo'lishi jarayonining psixik determinatsiyasi qonuniyatlarini o'rganish tadqiqot natijalariga hamda faoliyatning o'zini va uning sub'ektini, ularning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirini tadqiq qilishga, bu bog'liqlikning namoyon bo'lishi shakllariga, rivojlanish xarakteriga, ularning o'zaro bir-biriga moslashuvining diagnostikasi va bashoratiga asoslanishi kerak.

Talabalar pedagogik kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagog-murabbiyda shakllanishi lozim bo'lgan prediktorlarni qay darajada o'zida kamol toptirishga erishayotganligini prognozlashda muloqotmandlik, tashkilotchilik, predmetlarga yo'nalganlik, intelligentlik, qo'llab-quvvatlash kabi prediktorlar ustvor ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avlaev, O. U. (2021). TALABALAR KASBIY KAMOLOTIDA USTANOVKALARNING O'RNI. Academic research in educational sciences, 2(10), 1247-1258.
2. Avlaev, O. U. (2021). Talabalar kamolotida ijtimoiy intellektning gender farqlari.«. PSIXOLOGIYA" ILMIY JURNAL, 3441.
3. Klimov Ye.A. Psixologo-pedagogicheskie problemy professionalnoy konsultatsii. M.: Znanie, 1983.
4. Lomov B.F. Metodologicheskie i teoreticheskie problemy psixologii. M.: Nauka, 1984.
5. Lomov B.F. Sistemnyy podxod i sistema determinizma v psixologii // Psixologicheskiy jurnal. 1989. № 4. S. 19-33.
6. Shadrikov V.D. Problemy sistemogeneza professionalnoy deyatelnosti. M.: Nauka, 1982.
7. Shadrikov V.D. Problemy professionalnykh sposobnostey // Psixologicheskiy jurnal. 1982. № 5. S. 13-26.
8. Mamasakhatovna Y.S The role of teachers in building the foundation of a new development period of Uzbekistan // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. - 2021. - T. 11. - no. 10. - S. 941-943.
9. Mamasakhatovna Y.S. Psychological fundamentals of child raising in the family. - 2021. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 3

MARCH 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ 94

10. Yuldasheva S.M. THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL TRAINING IN HUMAN DEVELOPMENT IN THE DEVELOPMENT OF COMMUNICATION QUALITIES // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). - 2022. - T. 2. - no. 1. - S. 350-353.
11. Mirobidovna, M. H. (2022, December). O'quvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari: Mirkosimova Hulkar Mirobidovna CHDPI Psixologiya kafedrası o'qituvchisi, Pedagogika-psixologiya mutaxassisligi II kurs magistri. Научно-практическая конференция, 2(2), 1090-1091.
12. Rabidjanovna, S. S., & Mirabidovna, M. H. (2021). Methods of resolution of conflict in the pedagogical process. Middle European Scientific Bulletin, 11.
13. Avlayev, O.; Mirkosimova, H. (2023). O'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini o'rganish usullari. Maktab va hayot, 3(157), 4-7.
14. Saodat, Y. (2023). Clarification of professional awareness i future educators. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 185-188.
15. Yuldasheva, S. (2023). Self-determination of a human as a psychological problem. Science and innovation, 2(B3), 91-94.
16. Yuldasheva, S. (2023). Prognosing the results of students' educational activities. Science and innovation, 2(B5), 274-277.
13. Yuldasheva, S. (2023). High school student ability and problems of its determination. Science and innovation, 2(B3), 95-98.
17. Abduqodirova, D., & Abdurasulov, J. (2025). YOSHLARDA HARBIY-VATANPARVARLIK TUYG'USINI TAKOMILLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 4(1), 50-53. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdpp/article/view/42882>
18. Жўраев , Ш. ., & Абдурасулов , Ж. (2024). ҲАРБИЙ ЖАМОАДАГИ ИЖТИМОЙ ФИКР. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 1(2), 97-103. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yoitj/article/view/28151>
19. Abdurasulov J., & Pardabayeva , M. (2024). MUSOBAQADAN OLDIN SPORTCHILARNI PSIXOLOGIK TAYYORLASH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(6 Part 2), 73-76. извлечено от <https://inacademy.uz/index.php/ejsspc/article/view/34717>
20. Burieva, K. E., & Kamilova, Z. A. (2022). The psychology of adolescence. Scientific progress, 3(4), 923-929.